

TA'LIMDAGI YANGILIKLAR. YANGI O'ZBEKISTONDA SIFATLI TA'LIM.

Guldaste Kurbanbayeva

Nukus shahri ayrim fanlar(teranlashtirilib) ixtisoslashtirilib o'qitiladigan umumta'lim maktabining qoraqalpoq tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8134374>

Annotatsiya: Bu maqolada, O'zbekistonda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan innovatsion yangiliklar va sifatli ta'limning o'rni ko'rsatiladi. Maqolada, O'zbekiston ta'lim tizimining yanada rivojlanishini ta'minlash maqsadida, milliy ta'lim platformasi tashkil etilgan va bu platformada bir qancha interaktiv va multimedia ta'lim materiallari taqdim etilmoqda. Bu platforma orqali o'quvchilar o'zlarining jarayonlarini monitoring qilishlari mumkin. Maqolada ham, "O'quvchilar uchun tashkillashtirilgan ijobiy psixologik muhit" dasturi kabi ta'lim jarayonlarini yanada sodda va qiziqarli qilish uchun boshqa innovatsion texnologiyalar keltirilgan. Maqolada ayniqsa, O'zbekistonda sifatli ta'limning o'rni va uning o'quvchilar uchun foydali texnologiyalar bilan birgalikda qanday rivojlanayotganligi ko'rsatiladi. Bu maqolada keltirilayotgan yangiliklar O'zbekiston ta'lim tizimida yangi, innovatsion va sifatli ta'limni amalga oshirishga ko'mak beradi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston ta'lim tizimi, Innovatsion yangiliklar, Sifatli ta'lim, Milliy ta'lim platformasi, Interaktiv ta'lim materiallari, Multimedia ta'lim materiallari, Monitoring.

Maktabda olingan bilim insonning kelgusi hayot yo'lini belgilaydi. Ko'pchilik uni baho bilan o'lchaydi. Ammo baho bilimni belgilovchi aniq mezon emas. U o'quvchilarni faollikka undovchi, rag'batlantiruvchi vosita, xolos. Har bir o'qituvchining o'z ish uslubi, baholash metodi bor. Qaysidiro'qituvchi uchun baho bu – rag'bat yoki o'quvchini 45 daqiqa ushlab turish vositasi. Shundanmi, birsinfdan ikkinchi sinfga o'tgan bolaning bahosida keskin o'zgarish yaqqol namoyon bo'ladi. Yana, pedagoglar orasida bahoni nisbatan yuqoriroq qo'yuvchi yoki o'quvchining bilim darajasi talabga javob bersa-da, "5" ni tejaydiganlari bor. Bu usullarning qaysi biri to'g'riligi esa doimiy bahs talab mavzu.

Zero, Abdibek Sheroziy aytganlaridek: "Inson ilm nuri bilan o'z yo'lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko'chasida qoladi. Kishi qalbining nuri ilm va ma'rifat bilan baquvvat bo'ladi. Insoniyatning qadri ilm bilan hosil bo'ladi. Ilmdan hali hech kim zarar ko'rgan emas. Ilmni egallab olish va uni o'rgatish esa bir san'atdir". Bugungi Buxoro davlat universitetining Pedagogika institutida "Pedagogik ta'lim: Xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlar" mavzusidagi an'anaviy-amaliy anjuman ham keng mazmun va yuqori saviyada tashkil etilib, bevosita bugungi kundagi Oliy ta'lim va xalq ta'limi tizimidagi qator muammolarni aniqlash hamda ularning innovatsion yechimlarni topish, qolaversa, ijobiy yakunlarni ommalashtirishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini hamda xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risidagi 5712- va 5847-sonli farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026- yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28- yanvardagi 60-sonli Farmoni bugungi o'tkazilayotgan konferensiyaning metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi, - desak mubolog'a bo'lmaydi.

Oliy ta'lim va xalq ta'limi tizimi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish bevosita ta'lim jarayonidagi muammoni o'rganish va ularga yechim topish bilan uzviy bog'lanib, ta'lim jarayonidagi sifatni oshirishga xizmat qiladi. Bizga ma'lumki, 2022-yilning 28-yanvarida Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan

videoselektor o'tkazildi, undan ko'zlangan asosiy maqsad har bir hududda pedagogika oliy ta'lim muassasalari hamda akademik litseylarda faoliyat yuritayotgan tajribali pedagoglarni jalb qilgan holda ta'lim sifati past, muhiti og'ir bo'lgan maktablardagi pedagoglarni ilg'or metodikalar va innovatsiyalarga o'rgatish maqsadida "mobil metodik guruhlar" faoliyatini yo'lga qo'yish bo'ldi, qolaversa, oliy ma'lumotli pedagog kadrlarni oliygohlarda tayyorlash tizimi ham tubdan takomillashtirilishi alohida ta'kidlangan edi. Qolaversa, endilikda talabalarning 1-kursdanoq darslarning 4 kuni oliygohda, 2 kuni bevosita maktablarda o'qitilishi, maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqilish, o'quvchilarni nazariy bilimlar bilan birga fikrlashga chorlaydigan metodikalarni joriy qilish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Shu o'rinda, Prezidentimizning "Bir narsani yaxshi tushunish kerak. Hozirgi sharoit, muhit va imkoniyat 30-40 yil oldingi davrdan umuman boshqacha. Shuning uchun o'qitish metodikasi ham, darslik ham, pedagoglarning yondashuvi ham zamonga mos ravishda tubdan o'zgarishi kerak", degan fikrlarini keltirish joiz deb topdik.

Mazkur selektorda berilgan asosiy vazifalardan birining ijrosini taminlash maqsadida Buxoro davlat universiteti va Pedagogika institutida Buxoro viloyati maktablarida ta'lim sifati va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va metodik qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-ma'naviy muhit holatini yanada barqarorlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tuzib olindi va vazifalar belgilandi. Bularidan: Buxoro davlat universiteti huzurida malakali professor-o'qituvchilar, akademik litsey hamda umumta'lim maktablari malakali va tajribali o'qituvchilaridan tashkil topgan "Mobil metodik guruhlar" tashkil etildi, (Buxoro davlat universitetida 1 ta va Pedagogika institutida 1 ta), ta'lim sifati past, muhiti og'ir bo'lgan 20 ta maktablar ro'yxatini shakllantirib olindi, har bir maktab kesimida mavjud muammolar tahlili amalga oshirildi, tahlil natijalari asosida har bir maktab kesimida kafedralar tomonidan olib boriladigan ishlarni belgilab olindi, Oliy ta'lim muassasalari vakillaridan iborat "Maktab ta'limini rivojlantirishga ko'maklashish" Jamoatchilik Kengashini tuzildi, viloyat xalq ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'rta maxsus ma'lumotli (1709 nafar) pedagog xodimlariga ta'limning sirtqi, maxsus sirtqi, kechki hamda masofaviy shakllari orqali oliy ma'lumot olish uchun keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Qolaversa, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti tomonidan yuqoridagi qator qaror, farmon, loyihalarning ijrosini ta'minlash maqsadida yana qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, hozirgi kunda Pedagogika instituti va Buxoro viloyati xalq ta'limi boshqarmasi o'rtasida o'zaro 10 yillik hamkorlik shartnomasi tuzilgan bo'lib, bu bevosita, xalq ta'limi tizimidagi muammolarni bartaraf etish, xorij tajribalarini xalq ta'limi tizimiga olib kirish va ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir qilishga qaratilgan. Hamkorlik shartnomasida kafedraning sohaga oid ta'lim yo'nalishidagi har bir talabasini 2- kursdan boshlab qarashli ta'lim muassasalarida malakaviy amaliyotlarni tizimli ravishda o'tkazilishini hamda ixtisoslik fanlarining amaliy mashg'ulotlarini bevosita ishlab chiqarilishi, kafedraning soha mutaxassisligi bo'yicha bitiruvchilarini xalq ta'limi boshqarmasiga qarashli ta'lim muassasalarida ishga joylashtirish, xalq ta'limi boshqarmasiga tegishli ilmiy-texnik rivojlantirish yo'nalishlari muammolari mavzulari bazasini shakllantirish, xalq ta'limi boshqarmasining ilmiy-texnik rivojlantirish muammolarini kafedra bilan xo'jalik shartnomalarini tuzgan holda bartaraf etish, xo'jalik shartnomalarini bajarish ishlariga doktorantlar, magistrantlar va iqtidorli talaba yoshlardan iborat tadqiqotchilarni tizimli ravishda jalb qilishni tashkil etish, xalq ta'limi boshqarmasiga oid yangiliklar, rivojlantirish istiqbollari, ta'lim mazmunini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot

ishlarini rivojlantirish va kelgusidagi vazifalarni belgilab olish yuzasidan uchrashuvlar o'tkazib borishni amalga oshirish, Pedagogika institutning soha yo'nalishlariga mos kafedralari qoshida oliy ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi innovatsion korporativ hamkorlik guruhlarini shakllantirish kabi Oliy ta'lim va xalq ta'limi tizimidagi bajariladigan vazifalar mazmuni aks etgan. Bularning keyingi izchil davomi sifatida Buxoro davlar universitetining Pedagogika instituti bilan Buxoro shahar va Buxoro tumandagi 26 tadan ortiq maktablar bilan hamkorlik shartnomalari imzonlangan. Hozirda Buxoro davlar universitetining Pedagogika institutida 10 ta kafedra mavjud bo'lib, har bir kafedra huzurida ilmiy-tadqiqot markazlari ochilgan, markaz faoliyatining izchilligini ta'minlash uchun istiqbolli 3 yillik rejalar tasdiqlangan. Hamkorlik davomida muammolar va ularning yechimini topishga qaratilgan faoliyat qizg'in olib borilmoqda.

Biz shu narsani ishonch bilan ayta olamizki, ta'lim jarayonida oliy ta'lim va xalq ta'limi tizimida hamkorlikda nazariy va amaliy integratsion faoliyatni izchil tashkil eta olish ta'limda barqaror va sifatli muhitni yarata oladi.

Bugungi dunyoda avj olib borayotgan va insoniyat kelajagiga tahdid solayotgan turli inqirozlar, oila institutining yemirila boshlayotganligi, bir jinslilar o'rtasidagi nikoh, submadaniyat ko'rinishlarining tarqalishi, zo'ravonliklar, suitsid va boshqa ijtimoiy muammolarning keskinlashayotganligi har bir mamlakatda inson omili, uning ma'naviy kamoloti bilan uzviy bog'langan. Bunday sharoitda jadal o'zgarayotgan zamon talablariga javob beradigan keng qamrovli, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash strategiyasiga ega bo'lish bugungi kunning eng ustuvor talablaridan biri bo'lib qolmoqda.

Shuning uchun ham mamlakatimizda inson ma'naviy olami, uning ma'naviy kamoloti masalasi davlat siyosatining ustuvor masalasi sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev alohida ta'kidlagani kabi: "Sayyoramizning ertangikuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. ...

Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir"[1]. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar davlatimizning inson omiliga aynan tizimli yondashuv asosida faoliyat olib borayotganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni amalga oshirish borasida hal etilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalarni talab darajasida bajarishga va innovatsion rivojlanishga katta ahamiyat berilayotgani bejizga emas. Bu jarayon mamlakatimizning jahon bozorlarida o'ziga munosib o'ringa ega bo'lishi uchun ilm-fan yutuqlaridan va innovatsion texnologiyalardan keng ko'lamda foydalana oladigan yosh istiqbolli malakali kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish vazifalarni hal etish bilan uzviy bog'liqdir.

Ma'lumki, dunyoning taraqqiyotgan davlatlarida ta'limni rivojlantirishga oid o'z tajribalari bor. Oliy ta'limni, xususan universitetlar tarixiy rivojlanish yo'lida bir necha modellar orqali o'tib kelmoqda, bunda Universitet 1.0, Universitet 2.0, Universitet 3.0 va Universitet 4.0 konsepsiyalari ishlab chiqilgan. "Universitet 1.0" faqat ta'lim bersa, "Universitet 2.0" ("ikkinchi avlod universiteti") modeli ta'lim berish+ilmiy tadqiqot ham olib borishga ixtisoslashgan. XIX asrdan boshlab rivojlangan ta'lim muassasalari "tadqiqot universitetlari" deb ataladi.

"Universitet 2.0" ilmiy tadqiqot faoliyati orqali yangi bilimlarni yaratadi; bozorishtirokchilari uchun konsalting xizmatlari markazi bo'ladi; sanoat tomonidan buyurtmalar bo'yicha ilmiy

tadqiqotlar olib boradi, yangi texnologiyalarga asos soladi.

“Universitet 4.0” yuqoridagi barcha sifatlarni o‘zida jamlab, u raqamlashtirilgan va biznes jarayonlari avtomatlashtirilgan makon sanaladi. “Universitet 4.0” yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirishda etakchiga aylanib, ommaviy ishlab chiqarishdan iste’molchilarning individual talablari asosida xizmatlar etkazadi. Bu borada “Universitet 4.0” talabalarning individual ehtiyojlari asosida o‘quv reja va dasturlar tayyorlaydi. “Universitet 4.0” talabalarning nafaqat bilimi, balki ijtimoiyko‘nikmalariga ham ustuvor e’tibor qaratadi”[2].

Insoniyat jamiyatining agrar jamiyatdan industrial jamiyatga o‘tishi natijasida, “texnikaning tez rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy determinanti, sababi bo‘lib qoldi. Industrial jamiyat shakllanishining asosiy tarkibiy qismlariga uning paydo bo‘lish jarayonida yirik mashina ishlab chiqarishi (Rostou) erkin savdo va umumiy bozorga asoslangan iqtisodiyotning milliy sistemasi (Aron), timsoli korxona mehnatning korxonalashgan shaklda tashkil etilishi (Toffler) kiradi”[3]. Sanoatning rivojlanish davrining ham bosqichlari bo‘lib, hozirgi kunda insoniyat jamiyatida to‘rtinchi bosqichi ketmoqda. To‘rtinchi sanoat inqilobi (ing. The Fourth Industrial Revolution)ning konsepsiyasi Klaus Shvab, 2016 yilda xuddi shu nomdagi kitobida bayon etilgan bo‘lib, unga ko‘ra yaqin kelajak kiber-fizik tizimlarni[4] va inson ehtiyojlariga xizmat qilishni, shu jumladan kundalik hayot, ish va dam olish bilan ishlab chiqarishga keng joriy etish bilan belgilanishini ta’kidlagan.

Hayot darajasi va sifatini yaxshilashning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi va jozibadorligi tufayli hayotga tatbiq etilgan to‘rtinchi sanoat inqilobi beqarorlikning kuchayishi va jahon tizimining qulashi xavfini tug‘diradi va shuning uchun uning boshlanishi insoniyat javob berishi kerak bo‘lgan muammo sifatida qabul qilinadi[5]. To‘rtinchi sanoat inqilobigacha insoniyat 3 ta sanoat inqilobini boshidan o‘tkazdi. Birinchi sanoat inqilobida (XVIII asr oxiri) qo‘l mehnatidan mashina mehnatiga o‘tish, ya’ni bug‘ dvigatelining paydo bo‘lishi bilan izohlansa, ikkinchi sanoat inqilobi (XIX asr oxiri)da konveyer ishlab chiqarish, elektr stansiyasi, telefon singari ixtirolarni keltirish mumkin. Uchinchi sanoat (kompyuter) inqilobi (XX asr oxiri)da tranzistor, prosessor, kompyuter, Internet, raqamli kamera kabi kashfiyotlar amalga oshirildi.

Uch sanoat inqiloblarida bo‘lgani kabi, iqtisodiyotning o‘zgarishi ba’zi ommaviykasblarning yo‘q bo‘lib ketishiga va boshqalarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Masalan, ikkinchi va uchinchi sanoat inqilobidan keyin aravakash, eshkakchi, mo‘ri tozalovchi, chiroq yoquvchi, muz yig‘uvchi, suv tashuvchi, kompyuter mashinisti, stenograf va boshqa ko‘plab kasblar chiqib ketganini ko‘rish mumkin. 2020 yildan boshlab yo‘qolib borayotgan kasblar qatoriga radio operatori, kutubxonachi, pochta, kassir, haydovchi, buxgalter, tikuvchi, kulol, to‘quvchi, advokat, notarius, o‘qituvchi, farmatsevt, terapevt, jurnalist, riyeltor, logist, dispatcherlik kasblarni kiritishgan.

Rivojlanayotgan kasblar qatoriga blogger, ma’lumotlar sotuvchisi, UX/UI dizayneri, UX/UI dizayner, Data scientist, bioinformatik, biofarmakolog, neyropsixolog, 3D bosib chiqarish muhandisi va boshqalar[6] keltirilgan.

Mamlakatimizda to‘rtinchi sanoat davri kirib kelishi natijasida malakali kadrlar tayyorlash vazifalarini amalga oshirishda, O‘zbekistonda faoliyat yuritib kelayotgan oliy o‘quv yurtlari muhim ahamiyatga ega. Chunki, ta’lim tizimida yoshlarni tarbiyalabvoyaga yetkazishgina emas, balki zamonaviy yuksak malakali mutaxassis kadrlarni tarbiyalashga ham katta e’tibor berilib kelinmoqda. Ma’lumki, hozirda butun dunyoda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ishlar

tobora jadallashib bormoqda. Mazkur yilni “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” yili deb e’lon qilinishi ham bejizga emas. Shu jihatlarinobatga olingan holda mamlakatimiz Oliy ta’lim muassasalarida ham ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish borasida aniq maqsadga yo’naltirilgan tizim shakllantirishga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Bu tizimning eng asosiy maqsadlaridan biri – yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, ular o’z intellektual salohiyatlarini namoyon etishlari uchun keng imkoniyatlar eshigini ochish, oliy ta’lim sohasida mutaxassislar tayyorlash, shuningdek, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo’yicha yangilangan davlat oliy ta’lim standartlari va o’quv dasturlari joriy qilishdan iboratdir.

Hozirgi zamon taraqqiyotining axborotlashuvi va inson faoliyatining barchajabhalari[7; 8; 9; 10; 11; 12; 13; 14; 15; 16], shu jumladan ta’lim tizimiga fan va texnikataraqqiyoti yutuqlarining keng tatbiq etilishi, inson qalbi uchun turli xarakterdagi axborot-psixologik kurashlarning olib borilishi ta’limni sifatli boshqaruv tizimida tahliliy metodlardan oqilona foydalanishni taqozo etadi.

Ma’lumki, kadrlar siyosatining tarkibiy elementlari o’z ichiga bandlik siyosati, rag’batlantiruvchi siyosat, ijtimoiy-mehnat sohasidagi siyosat, personalni rivojlantirish siyosatlarni qamrab oladi. Bandlik siyosati o’z ichiga personalni jalb qilish, tanlab olish va yollash tizimini yaratish, tashkilotning kadrlarga bo’lgan son va sifat ehtiyojlarini aniqlash, xodimlarni tashkilotga bog’lanib qolishini ta’minlash, personal tarkibining moslashuvchanligini ta’minlash, shuningdek kerak bo’lib qolganda xodimlarni bo’shatish kriteriy va usullarini aniqlash kabi masalalarini oladi. Rag’batlantirish siyosati personalni o’zishidan mamnun ekanligini davriy nazorat qilishni, personal mehnatini baholash, asoslash va rag’batlantirishni ko’zda tutadi. Ijtimoiy-mehnat munosabat orasidagi siyosat tashkilot xodimlarini kerakli axborot bilan ta’minlashni, kadrlar aylanmasining sabablarini tahlil qilishni, muammolarni yechish va diagnostika qilish usullarini aniqlashni, qayta aloqa kanallarini munosabatlarini o’rgatishni, xodimlarni ijtimoiy himoya tizimi borligini tashkiliy madaniyatini yaratishni va uni qo’llab-quvvatlashni, oddiy xodimlar va rahbariyat orasida o’zaro hamkorlik darajasini oshirishni ko’zda tutadi.

Kadrlar boshqaruvi modellarining har xilligi tarixiy va milliy xususiyatlar, texnologiyaning rivojlanish va insonning tashkilotdagi o’rni va roli haqida tushunchalar, tashkilot personalini har xil prinsipda boshqarish bilan shartlangan. Nazorat tizimidan foydalanish xususiyatlariga ko’ra kadrlar menejmentning uch modeli ajralib turadi: oddiy (iyerarxik) nazoratga asoslangan, texnologik nazoratga asoslangan, byurokratik nazoratga asoslangan. Birinchi model tadbirkor o’zi ishlab chiqarish protsessiga aralashib o’zi ishga yollash va ishdan bo’shatish, mukofotlash kriteriyalarini aniqlab, o’zi boshqaruvchi firmalar uchun xarakterlidir.

- Hozirgi vaqtda kadrlar bilan ishlash yangi shaklining nazariy asosi bo’lgan “inson resurslari” konsepsiyasi ishlab chiqilgan. U xodimlarni tanlash, uzluksiz o’qitib borish va ishchining sifatlarini, potensial imkoniyatlarini, qobiliyatlarini aniqlash va doimo rivojlantirib borishga sarflanadigan kapital qo’yilmalarni iqtisodiy maqsadga muvofiqligini e’tirof etishga asoslanadi. Bu konsepsiyaning o’ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: zamonaviy sharoitda inson omili rolini baholashda iqtisodiy mezonlardan foydalanish;
- firma doirasida boshqarish;
- xodimlar bilan ishlash tizimini qayta qurish [17].

Aynan yuqorida ta'kidlangan fikrlardan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalari tizimida "kadrlarni tayyorlashning maqsadli mezonlarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalaridagi ixtisoslik yo'nalishlari va mutaxassisliklarni hududlar va sohalar bo'yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlari, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni kompleks taraqqiy ettirish istiqbollari, xorijiy davlatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik inobatga olgan holda optimallashtirish" masalasi Toshkent davlat transport universitetiga ham bevosita daxldordir. Misol tariqasida Janubiy Koreyaning Gachon universiteti professori Dasong Choy Toshkent davlat transport universiteti professor-o'qituvchilari bilan olib borgan seminar- treningida hozirgi kunda oliy ta'lim tizimidagi mavjud muammolar to'g'risida quyidagi fikrlarini bildirib o'tdi: "Birinchidan, bugungi kunda oliy ta'lim tizimi texnologiyalar rivojidan ortda qolib ketmoqda, ikkinchidan, hozir olinayotgan bilimlarertaga eskirib qolmoqda, uchinchidan, ta'lim borgan sari o'z unumdorligini yo'qotib bormoqda. Sababi, internet tarmoqlarining taraqqiy etishi bilan barcha ma'lumotlar ijtimoiy tarmoqlardan topish imkoniyati kengayib ketdi". Shunday ekan bugungi professor-o'qituvchilardan zamon bilan hamnafas ilmiy-tadqiqotlar olib borish talab etiladi. Oliy ta'lim tizimi jahon standartlariga javob beradigan davlatlar bilan fan, ta'lim sohalarida o'zaro manfaatli hamkorlik masalasini yo'lga qo'yilishi o'ylaymizki o'zini ijobiy natijalarini beradi.

REFERENCES:

1. V.N.Nersesyans "huquq falasafasi" ADOLAT nashr 2003-yil.
2. <https://ru.wikipedia.org> Четвёртая промышленная революция: интернет вещей, циркулярная экономика и блокчейн // furfur.me
3. <https://ru.wikipedia.org> 4-я промышленная революция в Давосе.
4. Судаков Д. Атлас новых профессий. При поддержке МШУ «Сколково» и Агентства стратегических инициатив.
5. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. Teylor qatori. Elementar funksiyalarni darajali qatorlarga yoyish. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 (SJIF) January 2023 / Volume 4 Issue 1. www.openscience.uz / ISSN 2181-0842.
6. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. Sonli qatorlar. (Musbat hadli qatorlarning yaqinlashish teoremlari. Leybnis teoremasi, absolyut va shartli yaqinlashish.). "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 (SJIF) January 2023 / Volume 4 Issue 1. www.openscience.uz / ISSN 2181-0842.